

Diofant tenglamalar. Chiziqli Diofant tenglamalarni Evklid algoritmi yordamida yechish metodlari.

G`ayniddinov Shayxislom Tolibjon o`g`li

Namangan davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasi o`qituvchisi.

Xo`jamqulov Ravshanbek Hasanboy o`g`li

ravshanbekhan1@gmail.com

Abdullayeva Shahloxon Bahodir qizi

shahloa948@gmail.com

Namangan Davlat Pedagogika instituti Matematika – informatika yo`nalishi 2-kurs talabalari

Annotation: This article is about Diophantine equations, which studies methods for solving linear Diophantine equations using the Euclidean algorithm. Diophantine equations are equations that have only integer solutions, and their study dates back to the ancient Greek mathematician Diophantus.

Keywords: Comparisons, Diophantine equations, Euclidean algorithm, continued fraction, set, Diophantine equations in two unknowns, module.

Аннотация: Статья посвящена Диофантовым уравнениям, в которой изучаются методы решения линейных Диофантовых уравнений с использованием алгоритма Евклида. Диофантовы уравнения — это уравнения, имеющие только целочисленные решения, и их изучение восходит к древнегреческому математику Диофанту.

Ключевые слова: Сравнения, Диофантовы уравнения, Алгоритм Евклида, цепная дробь, множество, Диофантово уравнение с двумя неизвестными, модуль.

Annotatsiya: Ushbu maqola Diofant tenglamalar haqida bo`lib, unda chiziqli Diofant tenglamalarini Evklid algoritmi yordamida yechish metodlari o`rganiladi. Diofant tenglamalar – faqat butun sonli yechimlarga ega bo`lgan tenglamalar bo`lib, ularning o`rganilishi qadimgi yunon matematigi Diofantusga borib taqaladi.

Kalit so`zlar: Taqqoslamalar, Diofant tenglamalar, Evklid algoritmi, zanjir kasr, to`plam, Ikki noma`lumli Diofant tenglamar, modul.

KIRISH

Diofant tenglamalar.

$$f(x_1, x_2, \dots, x_n) = 0$$

ko`rinishidagi tenglamalar Diofant tenglamalar deyiladi. Ushbu tenglamalar qadim yunon tarixiga borib taqaladi. Yunon matematigi Diofant o`zining “ Arifmetika” nomli asarida algebraik tenglamalarni yechish usullari bayon qilib o`tilgan.

Ta`rif. n ta noma`lumli 1-darajali Diofant tenglamasi

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = b,$$

ko`rinishidagi tenglamalar bo`lib, bu tenglamaning yechimi, bu tenglamani qanoatlantiruvchi butun sonlar (x_1, x_2, \dots, x_n) majmuasidan iborat bo`ladi.

Yechim mavjudligi.

Aytaylik,

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = b \quad (1)$$

ko‘rinishidagi Diofant tenglama berilgan bo‘lsin. Ushbu tenglama butun sonlarda yechimi bo‘lishi uchun b soni a_1, a_2, \dots, a_n sonlarining eng katta umumiy bo‘luvchisiga bo‘linishi kerak, ya‘ni $(a_1, a_2, \dots, a_n) = d$ bo‘lsin, agar $b : d$ shart bajarilsa (1) tenglamaning butun sonlarda yechimi mavjud bo‘ladi aks holda, yechimi mavjud emas.

Teorema. Agar, (1) tenglama uchun $a_1, a_2 \dots a_n$ koifsentlar o‘zaro tup bo‘lsa, unda Diofant tenglamasi

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = 1$$

butun sonlarda yechimga ega.

Teorema isboti. Bizga M musbat sonlar to‘plami berilgan bo‘lsin, b uchun quyidagi tenglama

$$a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = b,$$

M to‘plamida eng kichik son mavjud bo‘lsin, va uni d bilan belgilab, yuqoridagi tenglama uchun $x'_1, x'_2 \dots x'_n$ buton sonlarni mos qo‘yamiz, shunda

$$a_1x'_1 + a_2x'_2 + \dots + a_nx'_n = d$$

tenglamaga ega bo‘lamiz. a_1 uchun $a_1 = d \cdot q + r$ tenglik o‘rinli va bu yerda $0 \leq r < d$ oraliqda bo‘lsin.

$$\begin{cases} r = a_1 - d \cdot q \\ d = a_1x'_1 + a_2x'_2 + \dots + a_nx'_n \end{cases}$$

ushbu tenglikni birlashtirib quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$r = a_1 - (a_1x'_1 + a_2x'_2 + \dots + a_nx'_n) \cdot q.$$

Yuqoridagi tenglikni soddalashtiramiz va

$$r = a_1(1 - qx'_1) + a_2(-qx'_2) + \dots + a_n(-qx'_n).$$

$r \in [0, d)$ da va $d \in M$ ($M > 0$) to‘plamdagi eng kichik musbat son bo‘lgani uchun r musbat son bo‘lishi mumkin emas, shunday qilib $r = 0$ bo‘lganidan $a_1 = dq$ tenglikka ega bo‘lamiz. Shu tarzda, d soni a_1, a_1, \dots, a_1 sonlarining umumiy bo‘luvchisi ekanligini ko‘ramiz. Agar $(a_1, a_2, \dots, a_n) = 1$ bo‘lsa, unda $d = 1$ va $1 \in M$, ya‘ni tenglama butun sonlarda yechimga ega ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Chiziqli Diofant tenglamalarni yechish uchun Evklid algoritmini ko‘rib chiqaylik.

Evklid algoritmi ikki noma‘lumli chiziqli Diofant tenglamalarini yechishda qo‘llaniladi. Tenglama ko‘rinishi $a \cdot x + b \cdot y = c$ dan iborat bo‘ladi.

Ikki noma‘lumli Diofant tenglamarni Evklid algoritmi yordamida quyidagicha yechiladi:

Dastlab (a, b) ni topib olamiz. Agar $(a, b) = d$ bo‘lsa, va $c : d$ shartni bajarsa tenglama butun sonlarda yechimga ega bo‘ladi.

Kengaytirilgan Evklid algoritmi orqali $(a, b) = d$ ni a va b ning chiziqli kombinatsiyasi sifatida ifodalash mumkin:

$$d = a \cdot x_0 + b \cdot y_0$$

Tenglamani d ga bo‘lib soddalashtiramiz:

$$\frac{a}{d} \cdot x + \frac{b}{d} \cdot y = \frac{c}{d}$$

va xususiy yechimni topamiz. Agar x_0 va y_0 xususiy yechim bo'lsa, bu tenglama uchun quyidagi umumiy yechim mavjud:

$$\begin{cases} x = x_0 + \frac{b}{(a,b)} \cdot t \\ y = y_0 - \frac{a}{(a,b)} \cdot t \end{cases}, t \in \mathbf{Z} \quad (2)$$

1-misol. $7x + 13y = 4$ ushbu ikki noma'lumli Diofant tenglamani yechimini toping.

Yechish. Tenglama yechimga ega bo'lishi uchun $(a_1, a_2, \dots, a_n) = 1$ shart bajarilishi kerak. Bu yerda $(7, 13) = 1$, shuning uchun tenglamaning butun sonlarda yechimi mavjud ekan. [5,6,7,8]

Ushbu Diofant tenglamani Evklid algoritmidan foydalanib yechamiz:

$d = 1$ ekanligi bizga ma'lum. d ni 7 va 13 ning chiziqli kombinatsiyasi orqali ifodalab olamiz:

$$1 = 7 \cdot 2 - 1 \cdot 13$$

$4 = 7x + 13y$ tenglama shu ko'rinishda bo'lgani uchun yuqoridagi tenglikni 4 ga ko'paytiramiz:

$$4 = 4 \cdot (7 \cdot 2 - 1 \cdot 13),$$

Bu tenglikdan ko'rinadiki, $x_0 = 8$ va $y_0 = -4$ xususiy yechimga ega bo'lamiz. Ushbu yechimdan umumiy javobni topishimiz mumkin. [1-10]

Umumiy yechimni topish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\begin{cases} x = x_0 + \frac{b}{(a,b)} \cdot t \\ y = y_0 - \frac{a}{(a,b)} \cdot t \end{cases}, t \in \mathbf{Z}$$

Umumiy yechimni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\begin{cases} x = 8 + 13 \cdot t \\ y = -4 - 7 \cdot t \end{cases}, t \in \mathbf{Z}$$

bundan ko'rinadiki, $7x + 13y = 4$ tenglama uchun butun sonlar ko'rinishidagi umumiy yechim $\begin{cases} x = 8 + 13 \cdot t \\ y = -4 - 7 \cdot t \end{cases}, t \in \mathbf{Z}$ dan iborat ekan. [6,7]

2-misol. Ushbu , $123x + 456y = 789$ chiziqli Diofant tenglamani yechimini toping.

Yechish. Dastlab tenglamaning yechimi bor yoki yo'qligini tekshiramiz:

$$(123, 456) = 3$$

$$789 \div 3 = 263,$$

ya'ni, $789 : 3$ shart bajariladi va bu chiziqli Diofant tenglamaning butun sonlarda yechimi mavjudligini va ular 3ta ekanini ko'rsatadi. [5-10]

Ushbu tenglamani Evklid algoritmidan foydalanib yechamiz:

Bizga $d = 3$ ekani ma'lum, shuning uchun bu tenglamani d ga bo'lib soddalashtirib olamiz, shunda biz

$$41x + 152y = 263$$

tenglikka ega bo'lamiz. Bu yerdagi x_0 va y_0 larni topish uchun taqqoslamalarning yechishning zanjir kasr usuli qo'l keladi. Yuqoridagi tenglamani quyidagicha ifodalab olaylik:

$$\begin{aligned}
41x + 152y &= 263 \Leftrightarrow 41x \equiv 263 \pmod{152} \\
41x &\equiv (152 + 111) \pmod{152} \\
41x &\equiv 111 \pmod{152} \\
\frac{152}{41} &= 3 + \frac{1}{\frac{41}{29}} = 3 + \frac{1}{1 + \frac{1}{29}} = 3 + \frac{1}{1 + \frac{1}{2 + \frac{1}{12}}} = 3 + \frac{1}{1 + \frac{1}{2 + \frac{1}{2 + \frac{1}{5}}}}
\end{aligned}$$

Bundan, zanjir kasrimiz $\{3, 1, 2, 2, 2, 2\}$ ga teng ekan. Bu zanjir kasr orqali P_{n-1} ni topib olamiz. Bunda bizga $P_n = P_{n-1} \cdot a_n + P_{n-2}$ formula qo‘l keladi.

n	0	1	2	3	4	5
a_n	3	1	2	2	2	2
P_n	3	4	11	26	63	152

Yuqoridagi jadvaldan $P_{n-1} = 63$ ekani ma’lum bo‘ladi.

$$\begin{aligned}
x &\equiv (-1)^n \cdot c \cdot P_{n-1} \pmod{b} \\
x &\equiv (-1)^5 \cdot 111 \cdot 63 \pmod{152} \\
x &\equiv -6993 \pmod{152} \\
x &\equiv (151 - 7144) \pmod{152} \\
x &\equiv 151 \pmod{152}.
\end{aligned}$$

$x = 151$ tenglik orqali y_0 ni quyidagicha topamiz:

$$263 = 41 \cdot 151 + y_0 \cdot 152 \Rightarrow y_0 = -39$$

Umumiy yechimni topish uchun (2) formuladan foydalanamiz:

$$\begin{cases} x = 151 + 152t \\ y = -39 - 41t \end{cases}, t \in \mathbf{Z}$$

Demak, $123x + 456y = 789$ tenglamaning javobi $\begin{cases} x = 151 + 152t \\ y = -39 - 41t \end{cases}, t \in \mathbf{Z}$ ga teng ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada, Evklid algoritmi yordamida chiziqli Diofant tenglamalarini yechish usullari, yechim mavjudligi shartlari va qadam-baqadam yechim jarayonlari tahlil qilindi. Shu orqali, chiziqli Diofant tenglamalarning yechimlarini samarali topish metodlari va ularning amaliy qo‘llanishlari haqida ma’lumot berildi. Mazkur yondashuvlar, Diofant tenglamalarining murakkab masalalarini yechishda aniq va tizimli yondashuvni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Xudoyberganov, A. Vorisov va boshqalar. Matematik analizdan ma’ruzalar I, T., 2010.
2. A. G`oziyev, I. Isroilov, M. Yaxshiboyev, Matematik analizdan misol va masalalar I, Toshkent, 2012.
3. Jumayev M.E., “Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum-Toshkent.: O‘qituvchi, 2004.
4. Qahramon o‘g, O. K. I., Hasanboy o‘g, J. R. A., & Hasanboy o‘g, X. J. R. (2024). ANIQ INTEGRAL YORDAMIDA BA’ZI BIR LIMITLARNI HISOBLASH METODLARI. JOURNAL OF THEORY, MATHEMATICS AND PHYSICS, 3(6), 23-27.

5. Холмурадов, Ф. М., Умрзаков, Ш. К., & Мамадалиев, У. Х. (2024). ЎҚУВЧИЛАРДА АБСТРАКТ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Научный Фокус*, 1(11), 457-462.
6. Polvanov, R. R. (2023). IKKINCHI TARTIBLI GRONUOLL SHEGARALANISHLI BOSHQARUVLAR UCHUN TUTISH MASALASI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(12), 62-67.
7. Mamatxonovich, X. F., Erkinjonovna, S. Z., Tolibjon og, G. S., & Kosimovich, U. S. (2024). APPLICATIONS OF MATHEMATICAL MODELS IN THE TEACHING OF MATHEMATICS: PERSPECTIVES FOR GEOGRAPHY MAJORS. *Научный Фокус*, 1(11), 449-452.
8. Solovev, T. M., Shaikhislam, G. B., Epstein, S. A., & Sokolova, M. D. (2024). Properties and composition of Yakutian lignite as a source of humic substances. *MIAB. Mining Inf. Anal. Bull*, (1), 67-79.
9. Шайхислам, Г., Соловьев, Т. М., Эпштейн, С. А., Пестряк, И. В., & Семина, И. С. ПОЛУЧЕНИЕ ПОЧВОГРУНТОВ НА ОСНОВЕ ОКИСЛЕННОГО КАМЕННОГО УГЛЯ ДЛЯ БИОЛОГИЧЕСКОЙ РЕКУЛЬТИВАЦИИ НАРУШЕННЫХ ЗЕМЕЛЬ.
10. SHAIKHISLAM, G., & Solovev, T. M. (2024). Mining informational and analytical bulletin (scientific and technical journal).